

*Toirova Sarafroz Adhamjon qizi  
DENOV TADBIRKORLIK VA  
PEDAGOGIKA INSTITUTI  
talabasi*

**Annotation:** Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillarida gap bo'laklarining sintaktik tuzilishi qiyosiy tahlil etiladi. Gap bo'laklarining turlari, grammatik ifodalanish shakllari, til tizimidagi sintaktik vazifalari ko'rib chiqiladi va ularning joylashuvi. Ikki tilning tipologik farqlari va umumiyliklari aniqlanadi. Shuningdek, tahlil natijalari til o'rganish va tarjima jarayonida muhim metodik asosdir.

**Kalit so'zlar:** gap bo'laklari, sintaksis, ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol, qiyosiy tahlil va til tipologiyasi.

### **Kirish**

Gap bo'laklari har qanday tilda fikrni grammatik jihatdan to'g'ri, tushunarli va aniq ifoda etish vositasidir. O'zbek va ingliz tillarida gap bo'laklarining mavjudligi umumiy bo'lsa-da, ularning tuzilishi va ifodalanish usullari til tipologiyasidan kelib chiqib farqlanadi. O'zbek tili agglutinativ, ingliz tili esa analitik tuzilishga ega bo'lib, bu farq gap tuzilmasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi<sup>1</sup>.

#### **1. Gap bo'laklarining tasnifi**

O'zbek tilida gap bo'laklari odatiy ravishda ikki asosiy guruhga bo'linadi: bosh (ega va kesim) va ikkinchi darajali (to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol) bo'laklar. Ingliz tilida esa bu tasnif bir oz boshqacha shakllanadi. Subyekt va predikat asosiy bo'laklar sifatida qabul qilinadi, to'ldiruvchilar va aniqlovchilar esa "complements" va "modifiers" deb nomланади.

#### **2. Ega va kesim**

O'zbek tilida ega ot yoki olmosh odatda kesimdan oldin keladi. Biroq, gapning urg'u yoki kontekstiga qarab tartibi o'zgarishi mumkin: masalan, "Ali kitobni o'qiyapti" yoki "Kitobni Ali o'qiyapti."

Ingliz tilida esa qat'iy SVO (Subject-Verb-Object) tuzilishi bor: "Ali is reading a book." Bu tartibning o'zgarishi sintaktik mazmunga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

#### **3. To'ldiruvchi**

O'zbek tilida to'ldiruvchi, asosan, ot, olmosh yoki otlashgan birliklar yordamida ergashuvchi hol shakllari orqali ifodalanadi: Men kitobni o'qidim.

Ingliz tilida esa to'ldiruvchi fe'lning ortidan to'g'ridan-to'g'ri keladi:

<sup>1</sup> Xaitboyeva G. O'zbek tili sintaksisi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. – B. 45–58.

“I read the book.”

#### **4. Aniqlovchi va hol**

O‘zbek tilida aniqlovchi, ko‘pincha, so‘z oldidan joylashadi: Yangi mashina kelibdi. Hol esa joy, vaqt, sabab, yoki maqsad kabi mazmunlarda paydo bo‘lib, qo‘sishimchalar orqali aniqlanadi: U maktabda o‘qiydi, U avtobusdan tushdi.

Ingliz tilida aniqlovchilar sifatlar (adjectives), artikllar, yoki aniqlovchi iboralar orqali ifodalanadi: A new car has arrived. Hol esa predloglar orqali ifodalanadi: He studies at school, He got off the bus.

#### **5. Tartib va moslashuv**

O‘zbek tilida gap bo‘laklarining joylashuvi nisbatan erkin, asosiy bog‘lovchi elementlar qo‘sishimchalar hisoblanadi. Ingliz tilida esa qat’iy tartib saqlanishi kerak, chunki bu tilda qo‘sishimcha tizimi mavjud emas yoki juda cheklangan.

#### **XULOSA**

Gap bo‘laklarining o‘zbek va ingliz tillaridagi tuzilishi va joylashuvi ularning tipologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbek tili agglutinativ bo‘lganligi sababli, gap bo‘laklari nisbatan erkin joylashadi, ingliz tilida esa sintaktik tartib muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu farqlarni tahlil qilish xorijiy til o‘rganuvchilar, tarjimonlar va tilshunoslar uchun amaliy ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Xaitboyeva G. O‘zbek tili sintaksisi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. – B. 45–58.
2. Jo‘raev N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – B. 102–115.
3. Quirk R., Greenbaum S. A University Grammar of English. – London: Longman, 1973.
4. Xudoyberanova D. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2005.
5. Huddleston R., Pullum G.K. The Cambridge Grammar of the English Language. – Cambridge University Press, 2002.
6. Karimov E. Qiyosiy tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2011.